

JAZONING INDIVIDUALLASHTIRILISHI-JAZO TAYINLASHNING MUHIM OMILI

Hojiyev Afzalshoh Mardonovich

“Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti”

Magistranti, Toshkent davlat yuridik universiteti

afzalshohhojiyev@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada jazoning individuallashtirilishi jinoyat huquqining muhim tamoyili va jazo tayinlash jarayonining asosiy mezoni sifatida tahlil qilinadi. Unda sud tomonidan jazo belgilashda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etilish sharoiti, aybdorning shaxsi, uning ayb shakli, motiv va maqsadi, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi hamda og‘irlashtiruvchi holatlarning ahamiyati kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Maqolada jazoning adolatliligi, insonparvarlik va qonuniylik tamoyillari bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi hamda jazo individuallashtirilishining noto‘g‘ri qo‘llanilishi sud amaliyotida qanday muammolarni keltirib chiqarishi ilmiy-nazariy va amaliy misollar asosida asoslanadi. Shuningdek, milliy qonunchilik va sud amaliyoti tahlili orqali jazo tayinlashda yagona yondashuvni shakllantirish zarurati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida jazoning individuallashtirilishi nafaqat adolatli hukm chiqarish, balki jinoyatchilikning oldini olish va ijtimoiy tiklanish jarayonini ta‘minlashning muhim omili ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: jazoni individuallashtirish, jazo tayinlash, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, ayb, jinoyatchi shaxsi, yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar, adolatlilik, insonparvarlik, qonuniylik tamoyillar.

Bugungi kunda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli hukm chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu o‘rinda jinoyat huquqining asosiy institutlaridan biri hisoblanagan, sud hokimiyatining asosiy vazifasi bo‘lgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash jarayoni juda muhim o‘rin tutadi. Chunki tayinlanayotgan jazoning miqdori va turi adolatli, hamda jinoyatchi shaxsiga va jazodan ko‘zganlagan maqsadga erishish uchun mutanosib bo‘lishi lozim. Zero jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalasida sudlarning o‘rni juda katta hisoblanadi. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki oxirgi yillarda odil sudlov tizimini yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ushbu jarayonda jazoni individuallashtirish - adolatli jazo tayinlashning muhim omili hisoblanadi. Jazoning individuallashtirilishi jazo tayinlash jarayonining asosiy jihati bo‘lib, u adolatlilik, insonparvarlik, mutanosiblik va jazoning maqsadga muvofiqligini ta‘minlovchi asosiy huquqiy mexanizm hisoblanadi. Individualizatsiyasiz jazo tayinlash formal tus oladi, bu esa jinoyat huquqining asosiy vazifa, maqsadlariga va belgilab qo‘yilgan normalari zid keladi. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki jazoning individuallashtirilishi jazo tayinlash jarayonidan muhim omil ekanligiga juda ko‘plab sabablar mavjud: birinchidan, jinoyatlar uchun jazo tayinlash jarayonidan inobatga olinishi lozim bo‘lgan barcha holatlar, xususan sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar¹ jazo tayinlash jarayonida juda muhim hisoblanadi. Chunki, yuqoridagi tamoyillarni inobatga olib jazo tayinlash jazoning adolatliligi, insonparvarligi va qonuniyligini

¹ 22.09.1994. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

ta'minlaydi. Bu bevosita jazoning miqdori va turi, jinoyatchi shaxsi va jazodan ko'zlangan maqsadlarga erishishning mutanosibligini taminlash uchun muhim hisoblanadi;

ikkinchidan, individuallashtirish jazoning maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, jazo nafaqat jazolash, balki mahkumni tuzatish va yangi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qilishi lozim. Agar jazo shaxsning individual xususiyatlari inobatga olinmasdan tayinlansa, u tarbiyaviy va profilaktik ta'sirini yo'qotishi mumkin. Haddan tashqari og'ir jazo shaxsni tuzatish o'rniga uni jamiyatdan yanada uzoqlashtirishi, haddan tashqari yengil jazo esa javobgarlik hissini susaytirishi mumkin. Statistika e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2025-yilning 1-yarmida O'zbekiston Respublikasida 38 508 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rib chiqilgan, shulardan 30 915 nafar shaxs sudlangan, shunga mos ravishda sudlangan shaxslarning 9 570 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan, shu raqamlarning o'zi jazoni individuallashtirish juda muhim ekanligini namoyon etib bermoqda².

Shuningdek, yuqorida ta'kidlab o'tgan mulohazalarimiz bilan birgalikda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligiga bag'ishlangan yig'ilishlari sud, prokuratura va ichki ishlar organlari faoliyati to'g'risida alohida to'xtalib, jinoyatlarning yashirilishiga favqulodda holat sifatida qaralishi lozimligi, qamoq aybdorlarni tarbiyalashning asosiy vositasi bo'lmasligi, ularga jazo tayinlashda aybdorning shaxsi va boshqa holatlarni atroflicha o'rganish muhimligiga alohida e'tibor qaratishni va ayniqsa, voyaga yetmaganlar va ayollarga jazo tayinlashda sudlarning chuqur mulohaza yuritishi lozimligi ta'kidlab o'tgan edilar³. Yuqoridagi barcha jihatlar, jazoni individuallashtirishning ahamiyatini oshiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mavzuni tahlil qilishga kirishishdan avval, jazoni individuallashtirish tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, ushbu tushuncha yuzasidan olimlar va tadqiqotchilar har xil fikrlarni bildirib o'tishgan:

M.H.Rustambaevning fikriga ko'ra, jazoni individuallashtirish - jazo tayinlash institutining mazmuni bo'lib, sud tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddasining sanksiyasi doirasida, jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga muayyan davlat majburlov chorasini belgilashdir⁴;

Q.Y.Rozimova jazoni individullashtirish bu - har qanday jinoyat uchun jazo tayinlashda qo'llaniladigan umumiy mezonlar (Jinoyat kodeksi 54-modda 2-qismi), ayrim jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazoning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus mezonlar (jinoyatda ishtirokchilik darajasi, tugallanganligi bilan bog'liq mezonlar) va sudlar tomonidan alohida jazo turlarini tayinlashda hisobga olinadigan qo'shimcha mezonlarni (xususan, ozodlikni cheklash jazosining harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanmasligi va h.k) hisobga olgan holda jazo tayinlash⁵;

K.A.Aynutdinova jazoni individuallashtirish mezonlarini Q.Y.Rozimova tomonidan ta'kidlab o'tilgan 3 guruhga ajratadi⁶;

² criminal-2025-6.pdf

³ Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilindi

⁴ M.H.Rustambaev " Jinoyat huquqi Umumiy qism" darslik 2-tom, "Ilm-ziyo nashriyoti" Toshkent-2011, 76-bet

⁵ Q.Rozimova. Jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlar. 12.00.08 – Jinoyat huquqi.Kriminologiya; Jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent, 2024 y. – 247-bet.

⁶ K.A.Айнутдинова Критерии индивидуализации уголовного наказания при его назначении в теории, законодательстве и судебной практике. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук по специальности 12.00.08 – уголовное право и криминология, уголовно-исполнительное право. – Казан, – 2017. – С. 12.

<http://crimescience.ru/wp-content/>

D.Kamalova jazo tayinlashda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati, aybdor shaxsi, shu bilan birga, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, tayinlanadigan jazo chorasining mahkumni tuzalishi va oilaviy yashash sharoitiga ta'siri va boshqa holatlar inobatga olinishi⁷. deb ta'rif berishadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, jazoni individallashtirish bu- jazo tayinlashda inobatga olinishi lozim bo'lgan holatlar, Jinoyat kodeksida jazo turlari va jazo tayinlashda nazarda tutilgan boshqa qoidalardan kelib chiqib jinoyatchi shaxsiga va jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun mutanosib bo'lgan davlatning majburlov chorasini qo'llash hisoblanadi deyishimiz mumkin.

Bevosita shundan kelib chiqib jazo tayinlash jarayonidan jazoni individuallashtirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlarni 3 ta turga bo'lishimiz mumkin:

- 1) Umumiy mezonlar (Jinoyat kodeksi 54-modda 2-qism)
- 2) Maxsus mezonlar (ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash)
- 3) Qo'shimcha mezonlar (jazo turlarini tayinlashda mavjud cheklovlar)

Jazoni individuallashtirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan umumiy mezonlar haqida fikr yuritsak, Jinoyat kodeksi 54-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni o'z ichiga oladi.

Sodir etilgan jinoyatning xususiyati bu- tajovuzning sifat belgisi hisoblanib, jinoyat qonuni bilan himoya qilingan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilishi bilan ifodalanadi ya'ni tajovuz obyekti (inson hayoti va sog'lig'i, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.), ayb shakli, jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga (JK 15-modda) kiritilganligi bilan belgilanadi⁸. Ijtimoiy xavflilik darajasi esa ijtimoiy munosabatlarda qay darajada salbiy ta'sir qilishini ko'rsatuvchi miqdor ko'rsatkich hisoblanadi.

Sodir etilgan qilmishning sababi- jinoyat sodir etayotgan shaxning jinoyat natijasida ko'zlangan muayyan ehtiyoj va manfaatlarini hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz joizki jinoyatning sababini kelib chiqishida hech qanday aniq me'zon belgilanishi mumkin emas, chunki har bir jinoyatning kelib chiqish sababi har xil bo'lishi mumkin. Italiyalik olim Chezare Lombroso o'zining "**Crime: Its Causes and Remedies.**" kitobida jinoyatchilikning 300 dan ortiq kelib chiqish sabablari bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi⁹.

Sud tomonidan jazo tayinlash jarayonida inobatga olinishi lozim bo'lgan keying holat yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori. Yetkazilgan zararining xususiyati ma'naviy, mulkiy yoki jismoniy shaklda namoyon bo'ladi. Miqdori esa alohida belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlar BHM bilan hisoblanib Jinoyat kodeksi sakkizinchi bo'limida atamalar qatorida o'z ifodasini topgan.

Jazoni individallashtirishda asosiy inobatga olinishi lozim bo'lgan holat bu aybdorning shaxsi hisoblanadi. Ushbu jihatga e'tibor qaratsak har bir shaxs o'ziga xos qarashlarga, e'tiqodga, jamiyatga va davlatga bo'lgan munosabatlarga ega. Eng asosiysi har bir shaxs o'ziga xos qonunga itoatkorlik ruhiga ega hisoblanadi. Sud ushbu shaxsiga jazo tayinlash jarayonida uning yoshi, jinsi, irqi, sudlanganligi, xavfli yoki o'ta xavfli retsidivligi va h.k. larni inobatga olishi lozim hisoblanadi, shundagini jinoyat sodir etgan shaxsiga nisbatan jazo tayinlashda jazodan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

⁷ "Kriminologiya va Jinoiy odil sudlov" ilmiy-amaliy jurnal 2021/1-2 "Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda individuallashtirish printsiplari" D.Kamalova Kriminologiya 14.02.2022.indd

⁸ I-сoн 03.02.2006. Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida

⁹ Crime, its causes and remedies : Lombroso, Cesare, 1835-1909 : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive

Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar Jinoyat kodeksi 55-56-moddasida keltirilgan holatlar hisoblanadi, yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati cheklanmagan, sud yetarli asoslar bo'lganda boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin. Og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxati cheklangan bo'lib sudyaga jazo tayinlashda boshqa holatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topishi mumkin emas, lekin sud jazo tayinlash jarayonida yetarli asoslar mavjud bo'lganda 56-moddada keltirilganlarni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi mumkin. Ushbu qoidalar ham jazoni individuallashtirishga xizmat qiladi, chunki mazkur qoidalar sudga har bir jinoyat ishini umumiy qolip asosida emas, balki aniq shaxs va aniq vaziyatdan kelib chiqib baholash imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha holatlarni alohida inobatga olgan holda jazo tayinlanishi jazoni individullashtirishga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki ba'zi bir olimlar, xususan S.Muxammadjonov jazoni individullashtirish maqsadida ushbu jihatlarni Jinoyat kodeksi 54-modda 2-qismidan chiqarib tashlash to'g'risida fikr yuritadi, bunga asosiy argument sifatida ushbu normaning qonunchilikda belgilanishi bevosita sudyaning jazo tayinlash jarayonida inobatga olininishi lozim bo'lgan holatlarni cheklab qo'yishini aytishida. Bu to'g'ridan to'g'ri jazoni individuallashtirishga ta'sir qilishini ta'kidlashadi¹⁰.

O'z navbatida ushbu fikrni tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu normaning olib tashlanishi bevosita jazo tayinlash jarayonidan kamchiliklar va noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin, shu sababli ushbu taklif jazoni individuallashtirish tamoyilining to'liq va izchil amalga oshirilishiga ijobiy emas, balki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jazoni individuallashtirishning barcha mezonlari inobatga olgan holda jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishiga nisbatan adolatli jazo tayinlanishi lozim. Sud jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u yoki bu turdagi jazoni tanlar ekan, mahkumga uning aybiga yarashi qonunda belgilab qo'yilgan cheklashlar orqali jazodan ko'zlangan maqsadga ya'ni shaxsning jinoyatni sodir etmasligiga va shaxsni qaytadan qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga erishish uchun yetarli jazo turini tayinlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki yuqorida ta'kidlangan mezonlarga ro'ya qilmasdan jazo turi va me'yori tanlashda xatolikka yo'l qo'yish jazo tayinlash jarayonida adolatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Chunki jazoni individuallashtirish mezonlariga rioya qilinmagan holda tayinlangan jazo na jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga, na aybdorning shaxsiy xususiyatlariga mos keladi. Bunday holatda jazo haddan tashqari og'ir yoki aksincha, asossiz ravishda yengil bo'lib qolishi ehtimoli mavjud. Buning natijasida jazodan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashning mamlakatimizdagi huquqiy asosini o'rganib chiqqan holda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni inobatga olsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

Jinoyat kodeksi 54-modda 2-qismida jazo tayinlashda inobatga olinadigan holatlar keltirilgan. Jinoyat kodeksi 54-modda 2-qismini quyidagicha o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi: "Sud jazo tayinlashda jazoni individuallashtirish prinsipidan kelib chiqqan holda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini, uning moliyaviy ahvolini, jinoiy harakatlardan olingan daromadini, jinoyat sodir etgandan keyingi harakatlarini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi." Ushbu normaning quyidagicha o'zgartirilishidan asosiy maqsad, jazo tayinlashda

¹⁰ S.Muxammadjonov. Jinoiy javobgarlikni individuallashtirishda ishtirokchilik institutining dolzarb masalalari. 12.00.08 – Jinoyat huquqi va kriminologiya; jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2011 y. – 150 b.

individuallashtirish prinsipiga e'tibor qaratishni qonun darajasida mustahkamlaydi. Shaxsning moliyaviy holatini va jinoiy harakatlardan olingan daromadni inobatga olish, bevosita iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar uchun jazo tayinlashda juda muhim hisoblanadi, chunki hozirgi kunda ushbu jinoyatlarni sodir etilishidan asosiy maqsad bevosita daromad orttirish hisoblanadi. Shaxsning jinoyat sodir etgandan keyingi harakatlari ham juda muhim hisoblanadi. Xususan, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar sohasida juda muhim bo'lib bevosita jabrlanuvchiga tan jarohat yetkazilgandan keyin unga birinchi yordamni berish masalasi juda muhim hisoblanib jazo tayinlash jarayonida inobatga olinishi lozim hisoblanadi;

Germaniya Jinoyat kodeksida og'irlashtiruvchi holat sifatida dalillarni yashirish va yo'q qilishga urinish keltirilgan. Bu normani qonunchiligimizga kiritishimiz lozim. Chunki hozirgi kunda aksariyat og'ir jinoyatlarni yashirish va dalillarni yo'q qilish holatlari kuzatilmoqda. Bu ayniqsa iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarda o'z aksini topmoqda. Agarda Germaniya tajribasi qonunchiligimizga kiritilsa jinoyatlarning ko'lami va darajasi ancha sustlashgan bo'lardi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, sudlar ba'zan jazo tayinlashda jinoyatning barcha holatlarini, uning sababi va sodir etilish sharoitini hamda aybdorning shaxsiy xususiyatlarini to'liq va chuqur baholashi lozim. Bu esa jazo belgilash jarayonida xatoliklarni oldini olishi mumkin hisoblanadi. Jazoni individuallashtirish deganda faqat jazo turini tanlash emas, balki uning miqdori, qo'shimcha jazolarni qo'llash masalasi va jazoning maqsadiga erishish darajasi ham e'tiborga olinishi kerak.

Shu bois sudlar tomonidan har bir ishda umumiy, maxsus va qo'shimcha mezonlarni to'liq inobatga olish, Plenum qarorlaridagi tushuntirishlarga qat'iy amal qilish hamda jazoni individuallashtirishni jinoiy huquqiy siyosatning asosiy talabi sifatida ko'rish lozim hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha holatlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki jazoni induviduallashtirmaslik quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazoning haddan tashqari yengil yoki og'ir jazo tayinlanishiga olib keladi, bu esa bevosita odillik prinsipining buzilishi hisoblanadi;
- Jazodan ko'zlangan maqsadga erishilmaydi ya'ni shaxsni axloqan tuzatish, qaytaddan jinoyat sodir etishni oldini olish va boshqalarni ogohlantiruv funksiyasini bajarmaydi;
- Jamiyatda jazo muddatini o'tab bo'lgan, sudlangan shaxslarning qayta jinoyat sodir etish ehtimolini oshiradi;
- Quyi instansiya sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni yuqori instansiyada bekor qilinishiga olib keladi;
- Fuqarolarning adolatli sud tizimiga bo'lgan ishonchini pasayishiga olib keladi.

Jazoni individuallashtirish nafaqat jinoyat uchun jazo tayinlash jarayonida muhim, balki jinoyat-huquqiy siyosatning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. U adolat, qonuniylik va insonparvarlik prinsiplariga mos bo'lib, qayta jinoyat sodir etishni oldini olishga hamda sud tizimiga bo'lgan ishonchning oshishiga xizmat qiladi.

Shu bois har bir jinoyat ishini ko'rib chiqishda jazo tayinlash jarayoni individual xususiyatlarni inobatga olgan, yetarli darajada asoslangan hamda jinoyat og'irligiga mutanosib tarzda amalga oshirilishi sud organlarining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan manbaalar ro'yxati:

1. Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilindi. Шавкат Мирзиёев - Ўзбекистон Республикаси Президенти
2. М.Н.Рустамбаев "Jinoyat huquqi Umumiy qism" darslik 2-tom, "Ilm-ziyo nashriyoti" Toshkent-2011
3. Q. Rozimova. Jinoyat uchun jazo tayinlashning nazariy va amaliy jihatlari. 12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya; Jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2024 y
4. S. Muxammadjonov. Jinoyat javobgarlikni individuallashtirishda ishtirokchilik institutining dolzarb masalalari. 12.00.08 – Jinoyat huquqi va kriminologiya; jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2011 y.
5. К.А. Айнутдинова Критерии индивидуализации уголовного наказания при его назначении в теории, законодательстве и судебной практике. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук по специальности 12.00.08 – уголовное право и криминология, уголовно-исполнительное право. – Казан, – 2017. – С. 12. <http://crimescience.ru/wp-content/>
6. "Kriminologiya va Jinoyat odil sudlov" ilmiy-amaliy jurnal 2021/1-2 "Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda individuallashtirish printsiplari" D. Kamalova Kriminologiya 14.02.2022.indd
7. PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
8. Crime, its causes and remedies: Lombroso, Cesare, 1835-1909 : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive
9. 22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
10. 1-сон 03.02.2006. Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida
11. criminal-2025-6.pdf